



TIBBIY TILDA ANIQLIK VA QISQALIK TAMOYILLARI: TERMIN TANLOVI, DUBLETLIK VA MATNING KOMMUNIKATIV XAVFSIZLIGI

Yo'ldosheva Mohlaroy Nuriddin qizi

Qo'qon universiteti Andijon filiali

Tibbiyot fakulteti Davolash ishi yo'nalishi talabasi

Email:

Turayev Alisher Anvarjon o'g'li

Tibbiyotda tillarni o'qitish kafedrasida o'qituvchisi

Email: alisherturayev2509@gmail.com

ORCID: 0009-0003-6613-3121

Annotatsiya. Tibbiy matn va tibbiy muloqotning sifatini belgilovchi asosiy talablar orasida aniqlik (bir ma'nolilik, tushunchaning aniq chegaralanishi) hamda qisqalik (tiliy tejamkorlik, ixcham ifoda) tamoyillari alohida o'rin tutadi. Mazkur maqolada ushbu ikki tamoyil tibbiy terminologiya va funksional uslubiyat nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi. Tadqiqotda aniqlikning buzilish manbalari sifatida umumtil birliklarining terminlashuvi bilan bog'liq ko'p ma'nolilik, terminologik dubletlik, kontekstga kuchli bog'liq qisqartmalar va qarindosh terminlarning noto'g'ri farqlanishi ko'rsatiladi. Qisqalikni ta'minlovchi mexanizmlar sifatida internatsional terminlar, morfem-formantli tuzilmalar, me'yorlashgan termin birikmalari hamda nazoratli abbreviatsiya (qisqartmalar) tavsiflanadi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, aniqlik va qisqalik doimo bir yo'nalishda ishlamaydi: klinik va ilmiy registrda qisqa standart terminlar ustun bo'lsa, bemor-yo'naltirilgan matnlarda semantik shaffoflikni kuchaytiruvchi izohli nomlashlar ko'proq uchraydi. Ish yakunida janr va adresatga mos "Aniqlik–qisqalik muvozanati" bo'yicha amaliy tavsiyalar beriladi.



Kalit soʻzlar: tibbiy til, terminologiya, aniqlik, qisqalik, dublet terminlar, abbreviatsiya, meʼyorlash, registr, klinik matn, bemor-yoʻnaltirilgan kommunikatsiya.

Аннотация. В медицинском языке точность (однозначность, чёткая концептуальная граница) и краткость (языковая экономия) выступают как ключевые нормативные принципы. В статье рассматриваются источники неточности (полисемия, терминологическая дублетность, контекстно зависимые сокращения, смешение близких понятий) и механизмы краткости (интернациональные термины, форманты, стандартизация терминологических сочетаний, контролируемая аббревиация). Показано, что точность и краткость могут вступать в функциональное напряжение в зависимости от жанра и адресата: в клиническом и научном регистре доминируют компактные стандартизированные формы, а в пациент-ориентированных текстах приоритетом становится семантическая прозрачность через описательные номинации. В заключении предложены практические рекомендации по балансировке принципов точности и краткости.

Ключевые слова: медицинский язык, терминология, точность, краткость, дублетность, аббревиатуры, стандартизация, регистр.

Abstract. Precision (unambiguity and clear conceptual boundaries) and conciseness (linguistic economy) are core normative principles of medical language. This paper analyzes typical sources of imprecision—polysemy, terminological doublets, context-dependent abbreviations, and the confusion of closely related concepts—as well as mechanisms that ensure conciseness, including international terms, formative elements, standardized multiword terms, and controlled abbreviation practices. The results demonstrate a genre- and audience-dependent tension between precision and conciseness: clinical and academic registers favor compact standardized terms, whereas patient-oriented communication prioritizes semantic transparency through descriptive nominations. The paper concludes with practical recommendations on balancing precision and conciseness in medical texts.



Keywords: *medical language, terminology, precision, conciseness, doublets, abbreviations, standardization, register.*

Introduction

Tibbiy muloqot oddiy axborot almashinuvi bilan cheklanmaydi; u tashxis qo'yish, davolashni rejalashtirish, bemor roziligi va xavfsizligini ta'minlashga bevosita xizmat qiladi. Shu sababli tibbiy tilning sifat ko'rsatkichlari orasida aniqlik va qisqalik alohida o'rin tutadi. Sifatli muloqot shifokor va bemor o'rtasida ishonch hosil qiladi, qaror qabul qilish jarayonini qo'llab-quvvatlaydi hamda davolash natijalariga ta'sir qiladi (Sharkiya, 2023, 2-b.; Yorova va Hasanova, 2024, 68-b.).

So'nggi yillarda bemorning elektron yozuvlarga, laboratoriya xulosalariga va klinik tavsiyalarga to'g'ridan-to'g'ri kirish imkoniyati kengaygani uchun termin tanlovi yanada dolzarb bo'lib qoldi. Mutaxassis uchun qulay bo'lgan qisqa atama yoki qisqartma bemor uchun tushunarsiz bo'lishi mumkin; aksincha, bemor uchun shaffof tavsifiy birlik klinik registrda ortiqcha uzunlik va kategoriyaviy noaniqlik tug'dirishi ehtimol (Lalor va boshq., 2024, 1–2-b.; Australian Commission on Safety and Quality in Health Care, 2024, 1-b.).

O'zbek tilidagi zamonaviy tadqiqotlar tibbiy diskursning kommunikativ kompetensiya, ijtimoiy rol va pragmatik vaziyat bilan uzviy bog'liqligini ko'rsatadi. Tibbiyot xodimining lisoniy va kommunikativ salohiyati tashxis aniqligi, bemorni tushuntirish darajasi hamda professional hamkorlikning samaradorligida namoyon bo'ladi (Yorova, 2024, 11–12-b.; Yorova va Hasanova, 2024, 68–69-b.). Biroq amaliy tahrir tajribasida dublet terminlar, tor mutaxassislik jargoni va nazoratsiz abbreviatsiya bilan ishlash uchun yetarli darajada aniq, registrga mos tavsiyalar ishlab chiqilmagan.

Mazkur maqolaning maqsadi tibbiy tilda aniqlik va qisqalik tamoyillarining o'zaro nisbatini termin tanlovi, dubletlik va abbreviatsiya misolida aniqlash hamda klinik, o'quv va bemor-yo'naltirilgan registrlar uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdir. Ish gipotezasi shundan iboratki, aniqlik va qisqalik bir-biriga zid qoidalar emas; ular turli registrlarda turlicha faollashadigan, ammo yagona kommunikativ xavfsizlik maqsadiga xizmat qiladigan funksional mezonlardir.



Materials and Methods

Tadqiqot deskriptiv-tahliliy va qiyosiy-semantik yondashuv asosida bajarildi. Nazariy korpus sifatida 2022–2024-yillarda chop etilgan 8 ta yangi manba tanlandi. Ular tibbiy diskurs, plain-language resources, tibbiy jargon, abbreviatsiya va tibbiy kommunikatsiya xavfsizligiga oid monografiya, ilmiy maqola hamda amaliy tavsiyalarni qamrab oldi (Yorova, 2024, 64-b.; Pal va boshq., 2024, 493–494-b.; Australian Commission on Safety and Quality in Health Care, 2024, 1–7-b.).

Amaliy korpus sifatida klinik hujjatlar, o‘quv matnlari va bemor uchun yo‘riqnomalarda faol uchraydigan 24 termin jufti hamda 12 qisqartma namunalari muallif tomonidan saralandi. Termin juftlari orasiga internatsional standart termin va uning izohli yoki milliyroq ko‘rinishdagi varianti kiritildi (masalan, pnevmoniya/o‘pka yallig‘lanishi, arterial gipertenziya/qon bosimining yuqoriligi, gipoglikemiya/qonda qand miqdorining pasayishi, analgetik/og‘riq qoldiruvchi dori). Qisqartmalar orasiga esa klinik yozuvlarda ko‘p uchraydigan NPO, HTN, MI, GI, PPI, IV, IM, ac, pc, hs, D/C va IU birliklari kiritildi.

Tahlil jarayonida besh mezon qo‘llandi: 1) bir tushuncha–bir termin tamoyiliga moslik; 2) semantik shaffoflik; 3) registrga moslik; 4) kontekstsiz talqin qilinish ehtimoli; 5) matn iqtisodiyliqi. Qisqalik indikatorlari sifatida birlikning so‘zlar soni va ixchamligi, aniqlik indikatorlari sifatida esa terminning kategoriyaviy chegarasi, noto‘g‘ri talqinga moyilligi va birinchi o‘qishda tushunilish darajasi baholandi. Termin tanlovi klinik hujjat, o‘quv matni va bemor-yo‘naltirilgan matn kesimida alohida solishtirildi.

Tadqiqotda son jihatidan murakkab statistik model qo‘llanmadi; natijalar namuna korpusining tavsifiy tahlili asosida umumlashtirildi. Shunga qaramay, registrarlar bo‘yicha ustuvor variantlarni ajratish uchun saralangan termin juftlari va qisqartmalarning taqsimot ko‘rsatkichlari qayd etildi. Bunday yondashuv maqolaning amaliy maqsadiga — tibbiy matn tahriri va termin tanloviga oid ishchi tavsiyalar ishlab chiqishga mos keladi.

Results



Tahlil natijalari aniqlik tibbiy matnda, avvalo, kommunikativ xavfsizlik omili sifatida namoyon bo'lishini ko'rsatdi. Shifokor va bemor o'rtasidagi axborot almashinuvi ikki tomonlama jarayon bo'lib, u qanchalik aniq bo'lsa, klinik qaror ham shunchalik asosli bo'ladi (Yorova va Hasanova, 2024, 68-b.). Sifatli kommunikatsiya bemor salomatligi, qoniqishi va davolashga rioya qilishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi (Sharkiya, 2023, 2-b.). Shu bois terminning noaniqligi yoki dubletning nazoratsiz ishlatilishi sof uslubiy muammo emas, balki xavfsizlik bilan bog'liq muammodir.

Aniqlik buzilishining birinchi manbai tor mutaxassislik jargoni va bemor uchun yopiq bo'lgan terminlardir. Elektron sog'liq yozuvlarida bemorlar uchun GI, bariatric, PPI kabi birliklar izohsiz qoldirilganda tushunish qiyinlashadi (Lalor va boshq., 2024, 2-b.). O'zbek tibbiy nutqiga oid kuzatishlarda ham shu holat tasdiqlanadi: «gipoglikemiya» terminini bemorga yalang'och holda aytish yetarli bo'lmasligi, «qoningizda qand miqdori past» kabi izohli shakl esa aloqani osonlashtirishi ko'rsatilgan (Yorova, 2024, 75–76-b.).

Ikkinchi manba abbreviatsiyadir. Tibbiy yozuvda qisqartma vaqtini tejaydi, biroq u noaniq yoki ko'pma'noli bo'lsa, xatoga sabab bo'lishi mumkin. Avstraliya tavsiyalarida xatoga moyil terminologiya bemor xavfsizligi uchun kritik muammo sifatida baholanadi va ac, pc, hs, D/C kabi qisqartmalarni ishlatmaslik, yo'riq va yo'llarni to'liq yozish tavsiya etiladi (Australian Commission on Safety and Quality in Health Care, 2024, 1-b., 6–7-b.). Namuna korpusidagi 12 qisqartmaning 9 tasi bemor-yo'naltirilgan registrda izohsiz qo'llanganda yuqori xavfli deb baholandi.

Uchinchi manba dubletlikdir. Tahlil qilingan 24 termin juftining 18 tasida klinik registr va bemor uchun registr o'rtasida differensial tanlov zarurligi kuzatildi: klinik hujjatda standart xalqaro termin, bemor uchun matnda esa izohli variant yoki glossali shakl afzal bo'ldi. 4 birlikda bitta shaffof variant ikkala registrda ham ishlashi mumkin deb topildi, 2 birlikda esa izohli variant ham klinik mezonisiz yetarli aniqlik bera olmadi. Ayniqsa, «qon bosimining yuqoriligi» yoki «qonda qand pasayishi» kabi birliklar klinik chegaralar, raqamlar va tashxis mezonlari bilan birga berilgandagina xatarsiz ishlaydi.



Qisqalik tamoyili esa mutaxassislararo aloqada operativlik va standartlashtirish vositasi sifatida namoyon bo'ldi. Ekspertlar hamjamiyati uchun mo'ljallangan tibbiy matnlarda murakkab ilmiy va rasmiy ifodalar, ixcham terminlar va qisqa belgilashlar ustun bo'lishi qayd etiladi (Yorova va Hasanova, 2024, 69-b.; Yorova, 2024, 64-b.). Demak, qisqalikdan butunlay voz kechish emas, balki uni nazorat qilish zarur. Buni bemorlar jargonni qanchalik turlicha tushunishi haqidagi zamonaviy tadqiqotlar ham tasdiqlaydi (Lalor va boshq., 2024, 7-b.; Gotlieb va boshq., 2022, 6–7-b.).

Jadval 1. Registrga ko'ra tavsiya etiladigan termin tanlovi

Tushuncha	Standart termin	Izohli variant	Afzal registr	Nazoratsiz qo'llash xavfi
O'pka yallig'lanishi	Pnevmoniya	o'pka yallig'lanishi	Klinik hujjatda — pnevmoniya; bemor uchun matnda — o'pka yallig'lanishi (pnevmoniya)	Standart termin bemor uchun yopiq qolishi, izohli variant esa klinik qisqalikni kamaytirishi mumkin
Qon bosimining ko'tarilishi	arterial gipertenziya	qon bosimining yuqoriligi	Tashxis va protokolda — arterial gipertenziya; tushuntirishda — qon bosimining yuqoriligi	Raqam va mezonisiz berilganda vaqtinchalik holat bilan klinik tashxis chalkashishi mumkin



Tushuncha	Standart termin	Izohli variant	Afzal registr	Nazoratsiz qo'llash xavfi
Qonda qand pasayishi	gipoglikemiya	Qonda qand miqdorining pasayishi	Klinik yozuvda — gipoglikemiya; bemor uchun matnda — izohli variant + raqamiy mezon	Izohli shakl ham laborator mezon noaniq qoladi
Og'riqni kamaytiruvchi	analgetik	og'riq qoldiruvchi dori	Farmakologik tasnifda — analgetik; bemor yo'riqnomasida — og'riq qoldiruvchi dori	Izohli variant preparat sinflari farqini yashirishi mumkin
Semirish jarrohligi	bariatrik jarrohlik	vazn kamaytirish jarrohligi	Mutaxassislararo muloqotda — bariatrik jarrohlik; bemor uchun matnda — izohli variant	Tor atama tushunarsiz bo'lishi, izohli variant esa protsedura doirasini haddan tashqari kengaytirishi mumkin

Discussion

Olingan natijalar aniqlik va qisqalikni qarama-qarshi qoida sifatida emas, balki registr bo'yicha taqsimlanadigan funksional tamoyillar sifatida ko'rish



kerakligini ko'rsatdi. Klinik hujjatda terminning asosiy talabi — standartlashganlik, qisqalik va takrorlanishga qulaylik; bemor uchun matnda esa semantik shaffoflik, jargonsiz bayon va amaliy tushunarlik. Shunday ekan, bir xil terminning turli kommunikativ muhitlarda turlicha ifodalanishi ko'p hollarda xato emas, balki ehtiyotkor tahrir strategiyasi hisoblanadi.

Xalqaro tadqiqotlar bemorlar jargon va qisqartmalarning ko'p qismini to'g'ri anglamasligini ko'rsatadi. Masalan, ommaviy so'rovda NPO qisqartmasini to'g'ri tushunganlar ulushi ancha past bo'lgan, jargon o'rniga ishlatilgan izohli variant esa sezilarli darajada yaxshiroq o'zlashtirilgan (Gotlieb va boshq., 2022, 5-b.). Shuningdek, 10 ta keng qo'llanadigan qisqartmani yoyib yozish bemorlar tushunishini 62 foizdan 95 foizgacha oshirgani qayd etilgan (Grossman Liu va boshq., 2022, 2–3-b.). Bu ma'lumotlar kontrolli abbreviatsiya modelini qo'llash zarurligini tasdiqlaydi.

Tibbiy matn tahririda glossa va plain-language strategiyalaridan foydalanish alohida ahamiyatga ega. Plain-language resources bo'yicha scoping review bemorlar va keng jamoatchilik tibbiy axborotni jargon-free, easy-to-understand shaklda olishni ma'qul ko'rishini, qisqa so'zlar, qisqa gaplar, aniq sarlavhalar, Q&A va glossariy kabi shakllar samarali ekanini ko'rsatadi (Pal va boshq., 2024, 494-b., 508–509-b., 513–514-b.). Demak, tibbiy tilni soddalashtirish faqat leksik almashtirish emas; u matn tuzilishi, sarlavhalash, izoh berish va axborotning bosqichma-bosqich ochilishiga ham bog'liq.

Lalor va boshq. tadqiqotida mutaxassislar laypersonlar uchun muammoli jargon zonalarini 91,7 foiz sezgirlik va 88,2 foiz spetsifiklik bilan aniqlay olgani ko'rsatildi (Lalor va boshq., 2024, 7-b.). Bu natija o'zbek tibbiy matnlari uchun ham glossariy, editor checklist va first-mention explanation kabi vositalar ishlab chiqish mumkinligini anglatadi. Ayniqsa, bemor ko'radigan epikriz, laboratoriya xulosasi, eslatma va rozilik shakllarida shunday ikki qavatli tizim samarali: avval standart termin, so'ng qisqa izoh yoki aksincha — izohli variant va qavs ichida standart termin.



Shu asosda tibbiy matn tahriri uchun quyidagi amaliy algoritm taklif qilinadi: birinchidan, janr va adresat aniqlanadi; ikkinchidan, standart termin tanlanadi; uchinchidan, agar matn bemor uchun bo'lsa, birinchi qo'llanishda termin yoyib tushuntiriladi; to'rtinchidan, barcha qisqartmalar birinchi uchrashuvda to'liq ochiladi va xatoga moyil shakllar chiqarib tashlanadi; beshinchidan, izohli variant klinik chegarani xiralashtirsa, unga mezon, raqam yoki anatomik ko'rsatkich qo'shiladi. Bunday yondashuv aniqlikni pasaytirmagan holda qisqalikni nazorat ostida saqlash imkonini beradi.

Conclusion

Tadqiqot aniqlik tibbiy diskursda kommunikativ xavfsizlikning, qisqalik esa operativlikning tayanch omili ekanini ko'rsatdi. Demak, bu ikki tamoyilni alohida emas, bir-birini to'ldiruvchi me'yor sifatida tushunish zarur.

Namuna korpusida eng ko'p xavf tug'dirgan birliklar nazoratsiz abbreviatsiya, tor mutaxassislik jargoni va kontekstsiz qo'llangan dubletlar bo'ldi. Ayniqsa, bemor ko'radigan matnlarda qisqartmani yoyib yozish, standart termini izohlash va tibbiy kategoriyani shaffof ko'rsatish muhimligi tasdiqlandi.

Dublet terminlar ko'pincha xatolik emas, balki registrlar o'rtasida taqsimlanadigan funksional resursdir: klinik hujjatda standart xalqaro termin, bemor uchun matnda esa izohli yoki glossali variant afzal. Shu bois tibbiy termin tanlovi «janr–adresat–vazifa» uchligi asosida boshqarilishi lozim.

Amaliy jihatdan maqola natijalari tibbiy matn tahriri, terminologiyani o'qitish, tarjima va bemor uchun axborot materiallari tayyorlashda qo'llanishi mumkin. Keyingi tadqiqotlar uchun istiqbolli yo'nalish sifatida o'zbek tilidagi klinik hujjatlar korpusini tuzish va jargon hamda abbreviatsiyalarni avtomatik aniqlovchi glossariy vositalarini ishlab chiqish taklif etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Australian Commission on Safety and Quality in Health Care. (2024). Recommendations for safe use of medicines terminology. Sydney: ACSQHC.
2. Gotlieb, R., Praska, C., Hendrickson, M. A., Marmet, J., Charpentier, V., Hause, E., Allen, K. A., Lunos, S., & Pitt, M. B. (2022). Accuracy in Patient



- Understanding of Common Medical Phrases. *JAMA Network Open*, 5(11), e2242972. <https://doi.org/10.1001/jamanetworkopen.2022.42972>
3. Grossman Liu, L., Russell, D., Reading Turchioe, M., Myers, A. C., Vawdrey, D. K., & Masterson Creber, R. M. (2022). Effect of Expansion of Abbreviations and Acronyms on Patient Comprehension of Their Health Records: A Randomized Clinical Trial. *JAMA Network Open*, 5(5), e2212320. <https://doi.org/10.1001/jamanetworkopen.2022.12320>
 4. Lalor, J. P., Levy, D. A., Jordan, H. S., Hu, W., Smirnova, J. K., & Yu, H. (2024). Evaluating Expert-Layperson Agreement in Identifying Jargon Terms in Electronic Health Record Notes: Observational Study. *Journal of Medical Internet Research*, 26, e49704. <https://doi.org/10.2196/49704>
 5. Pal, A., Arnet, I., Elger, B. S., & Wangmo, T. (2024). Practices and Barriers in Developing and Disseminating Plain-Language Resources Reporting Medical Research Information: A Scoping Review. *The Patient*, 17, 493–518. <https://doi.org/10.1007/s40271-024-00700-y>
 6. Sharkiya, S. H. (2023). Quality communication can improve patient-centred health outcomes among older patients: a rapid review. *BMC Health Services Research*, 23, 886. <https://doi.org/10.1186/s12913-023-09869-8>
 7. Yorova, S. (2024). Ingliz va o‘zbek tibbiy nutqining ijtimoiy-madaniy xususiyatlari. Samarqand: Fan bulog‘i.
 8. Yorova, S. K., & Hasanova, F. O. (2024). Tibbiy diskursga xos bo‘lgan kasbiy va kommunikativ kompetensiya. *Central Asian Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies*, 1(8), 68–71. <https://doi.org/10.5281/zenodo.11235994>